

**PRAGMALINGVISTIKANING SEMANTIK-STILISTIK VA KOGNITIV-
PSIXIK XUSUSIYATLARI
(ABDULLA QAHHORNING “O‘G‘RI” HIKOYASI PRAGMALINGVISTIK
TAHLILI MISOLIDA)**

Otaqulova Adiba Olimovna

Samarqand davlat universiteti, filologiya fakulteti, lingvistika
(o‘zbek tili) mutaxassisligi magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tilshunoslikning pragmalingvistika sohasiga doir tadqiqotlardan umumiy xulosalar keltirilgan. O‘zbek tilshunosligining pragmalingvistika sohasiga oid ilmiy ish va tadqiqot materiallari o‘rganilib, pragmalingvistikaning semantika, stilistika, kognitiv lingvistika va psixologiya bilan bog‘liq jihatlariga e‘tibor qaratilgan. Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasi asosida pragmalingvistik tahlil amalga oshirilgan.

***Kalit so‘zlar:** pragmatika, semantika, sintaktika, stilistika, tagma‘no, kinoya, pressupozitsiya, nutqiy akt, pragmatik to‘siq, lingvistik belgi.*

Tilshunoslikda tilning ijtimoiy hodisa ekanligiga urg‘u berilib, insonlarning aloqa- almashinuv (kommunikatsiya) vositasi sifatidagi roli alohida e‘tiborga olingan. Tilshunoslik endilikda mana shu aloqaning kognitiv, psixik, pragmatik tomonlariga e‘tibor qaratib, tilning ham ijtimoiy, ham individual mohiyatini o‘rganmoqda. Olamning lisoniy manzarasini chizishda so‘zning semiologik- semantik tabiatigina emas, balki shu so‘z egasi bo‘lgan lisoniy shaxsning ongi, ruhiyati va mahorati ham muhim sanaladi. Tilning mahorat bosqichigacha bo‘lgan jarayonlari kommunikantning so‘z ma‘nolarini bilishi, qo‘llashi va anglashi hisoblanadi. Tilshunos olim V.V. Petrovning nazariyalarida ham ushbu fikrimizning tasdig‘ini

ko‘ramiz: “Inson qaysidir tilga xos semantik bilimlarsiz so‘zlashi va anglashi mumkin emas, ammo o‘sha tilga xos semantik bilimlar egasi bo‘lishning o‘zi ushbu tilda so‘zlash va anglash uchun kifoya qiladi degani emas, masalan, musiqali pyesa mazmunidan ogohlik uning ijrosi uchun yetarli bo‘lmaydi, buning uchun eng asosiysi, ijro mahorati, layoqati (“ умение играть”) ga ham ega bo‘lish lozim”¹

Zamonaviy tilshunoslikning yuzaga kelishi an’anaviy tilshunoslikning mantiqiy davomi hamda tarixiy zaruriyat sifatida baholanadi. Bugungi yangidan yangi lingvistik yo‘nalishlarning yuzaga kelishi ham davr talabi, taraqqiyot in’ikosidir. Biroq tan olish kerakki, inson qaysi davr va zamonda yashamasin, hamisha eng muhim omil bo‘lib kelgan. Shu boisdan qaysi soha bo‘lmasin inson va u bilan bog‘liq jihatlarni tadqiq etadi. Tilshunoslikning tibbiyot, tarix, falsafa, sotsiologiya, etnografiya, psixologiya, kognitologiya, matematika va musiqa fanlari bilan bog‘liq jihatlari chuqur o‘rganilib, tilshunoslik va shu kabi sohalarning kesishish nuqtasida yangi til tarmoqlari yuzaga keldi. Bu tilshunoslik sohalari bir- biri bilan chambarchas bog‘liqlikda tilni turli aspektlarda tahlil etib, inson va uning tilini o‘z “areal”larida tadqiq etadi. Ma’na shunday yangi yo‘nalishlardan biri bo‘lgan pragmatolingvistika sohasi inson lingvistik mahoratini nutqiy faoliyat, nutqiy aktlar doirasida o‘rganmoqda. Pragmatika tilshunoslikning inson amaliy hayoti, faoliyati, maqsadi bilan bog‘liq tomonlarini ifodalab, turli nutqiy jarayon va nutqiy vaziyatlarni tadqiq etadi. Bu yo‘nalish jahonda XIX asr oxiri- XX asr boshlarida paydo bo‘la boshlagan. Ch.Pirs, Ch.Morris kabi faylasuflar tomonidan pragmatikaga asos solingan bo‘lib, ular semiotikaning bir yo‘nalishi sifatida hisoblaganlar, ya’ni pragmatika falsafiy qarash va g‘oyalar negizida paydo bo‘lgan lingvistik yo‘nalishdir. Lingvistik pragmatikaning ulkan dengizga aylanishiga dastlabki irmoqlar sifatida L. Vitgenshteyn, V.V. Petrov, R. S. Stolneyker, L. A. Kiseleva, A.S. Axmanovanning nazariyalarini ko‘rish mumkin. O‘zbek tilshunosligida ham bu kabi irmoqlar talaygina bo‘lib, R. Qo‘ng‘urov, N. Mahmudov, M.Saidxonov, U.Rahimov, Z.

¹ Петров В.В. Философия, семантика, прагматика. // Новое в зарубежной лингвистике. Вып.XVI. – М., 1985 .- С.474.

Tohirov, B. O‘rinboyev, A.Nurmonov, D. Luffullayeva, Sh. Safarov, M. Hakimov, S. Karimov, A. Pardayev kabilarning pragmalingsvistikaga daxldor bo‘lgan ilmiy tadqiqotlarini misol keltirish mumkin.

Pragmalingsvistika tilning mahorat va ijro bosqichi masalalari bilan shug‘ullanar ekan, muloqot jarayonida lingvistik birliklarni tanlab olish, o‘rinli qo‘llash va ishtirokchilarga ta‘sir etish kabi jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Bu kabi masalalar esa nutqiy akt, deysis, diskurs nazariyalari, pragmasemantika, pragmastilistika kabi “ichki” sohalar doirasida o‘rganiladi. Shunisi muhimki, pragmalingsvistika muloqot ishtirokchilariga xos verbal va noverbal munosabatlarni ham qamrab olib, kinesika va lisoniy muamalaning eng kichik qismlarini ham e‘tibordan chetda qoldirmaydi. Kontekst, yashirin ma‘no, tagma‘no, presuppozitsiya kabilar esa pragmalingsvistikaning predmetlari bo‘lib, har qanday matnning pragmatik mohiyatini ochib beruvchilari sifatida qaraladi. Shunday qilib, semantik- stilistik, kognitiv-psixologik bosqichlar pragmalingsvistikagacha bo‘lgan muhim jarayonlarni o‘z ichiga oladi va ularning amaliy namoyon bo‘lishi, faoliyatdagi ishtiroki pragmalingsvistika sanaladi.

Har qanday nutqiy faoliyat psixik faoliyat hamdir, psixika insonning asosiy xususiyati bo‘lib, ijtimoiy muhitdagina yuzaga chiqadi. Har qanday insonning psixik rivoji ijtimoiy ravishda, ummuminsoniy madaniy tajribani o‘zlashtirish orqali amalga oshadi. Rus psixolingsvistikasining asoschilaridan biri- L.S. Vigotskiy 1934- yilda nashr ettirgan „tafakkur va nutq“ nomli risolasida nutqning inson psixologik-mantiqiy faoliyati bilan bog‘liq tomonlarini o‘rganayotib, psixologik faoliyatni elementlarga emas, balki birliklarga ajratish metodidan foydalanish lozimligini uqtiradi¹.

Har qanday kontekst individual kognitiv muloqot samarasidir. Til va tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlik kognitiv jarayonlarni yuzaga keltiradi. Pragmalingsvistikaning har qanday birligi kognitiv mexanizm bo‘lgan tildan holi emas, shunday ekan, pragmalingsvistik tahlil kognitiv bilimlarni ham to‘la- to‘kis ko‘rsatuvchi, talab

¹ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. –Тошкент.,2008. –Б.129

qiluvchi jarayondir. “Muloqotga kirishayotgan shaxs aytayotganlari tinglovchilar uchun relevant ekanligiga o‘zini oldindan ishontiradi. Ushbu ishonch “insonning psixologik qobiliyati va kommunikatsiya jarayonining asosiy to‘g‘nog‘ichidir” {Gutt 1996}. Shu asnoda ma’no tinglovchi kognitiv muhitini yangilaydigan hodisa ko‘rinishini oladi va bunda kommunikatsiyaning muvaffaqiyati so‘zlovchining intensiyasi tinglovchiga tushunarli va e’tiborli bo‘lishi bilan ta’minlanadi¹.

Badiiy asarni pragmalingsvistik tahlil etishda, yozuvchi yashagan muhit va tahlil qilinayotgan zamon ham e’tibordan qolmasligi lozim. Badiiy asar tili poetik bo‘lib, tilning estetik, ta’sir etish kuchi yuqori bo‘ladi. Tadqiqotchilar tomonidan badiiy asar tili stilistik, lingvopoetik aspektlarda o‘rganilmoqda. Filolog olim Bahodir Sarimsoqov badiiylik muammolari sof filologik muammo ekanligini aytganlarida qanchalik haq ekanligini pragmalingsvistik tahlillar misolida aytish mumkin.

Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasini pragmalingsvistik tahlil qilib, yuqoridagi fikrlarimizni isbotlashga harakat qilamiz. Hikoyaga “Otning o‘limi- itning bayrami” maqoli epigraf sifatida keltirilgan. Bu yozuvchiga xos bo‘lgan pragmatik taktika bo‘lib, kitobxonni oldindan hikoya g‘oyasidan boxabar etuvchi usuldir. Bu maqol yashirin mazmun ifodalash shakllaridan birinchisi, ya’ni umumiy yashirin ma’noga xos bo‘lib, muhim xususiyati barcha anglab olinishi osonligidadir. Bunday tagma’noli matnlar tor sintaktik qurilishda bo‘lib, nutq ishtirokchilari uchun tushunarli bo‘ladi. Yuqoridagi maqoldan bilish mumkinki, kimningdir boshiga tushgan qiyinchilik va musibatdan yana kimlardir manfaatdor va yana kimlardir foyda topadi. Badiiy asarlarning pragmalingsvistik tahlilga tortilishida yana bir muhim omil ularning emotsional- ekspressivligidadir. Bu esa ularda konnotativ ma’noning yetakchiligini ko‘rsatadi. Pragmalingsvistika esa ana shu konnotativ qurililishga e’tibor qaratadi. Ushbu maqoldagi “ot” va “it” kabilar umumiyashirin ma’noni yuzaga chiqargan konnotativ birliklardir. Denotativ ma’no oshkora tasvir etilmasa-da, uni anglash, tushunish qiyin kechmaydi. Boisi maqollarda xalq milliy-mental xususiyatlari qorishiq ifodalanadi. Hikoyadagi yana bir parchaga e’tibor qilaylik:

¹ Сафаров Ш. Таржимашуносликнинг когнитив асослари. –Тошкент.,2019. –Б. 71.

Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho‘kizi yo‘qolmasin. Bir qop somon, o‘n – o‘n beshta xoda, bir arava qamish- uy, ho‘kiz topish uchun necha zamonlar qozonni suvga tashlab qo‘yish kerak bo‘ladi. “Qozonni suvga tashlab “qo‘yish” dan boshqa barcha so‘zlar o‘z ma’nosida ifodalangan bo‘lib, uying kuyishi mumkinligiga misol sifatida keltiriladi. Demak, bir qop somon, o‘n- o‘n beshta xoda va bir arava qamishdan dehqonning uyini qursa bo‘ladi. Ammo ho‘kizning topilishi osonmas, buning uchun “necha zamonlar” (e’tibor qiling!) qozonni suvga tashlab qo‘yish kerak. Qozonni suvga tashlamoq (yoki tashlab qo‘ymoq) issiq ovqat qilmay, issiq ovqatsiz kunni o‘tkazmoq degan ma’noni ifodalab, bu paremiologik birlikdan Qobil boboning ro‘zg‘orini tasavvur etish maqsadida foydalanilgan. Yozuvchi ushbu birlikka pragmatik maqsadda yondashgan bo‘lib, kitobxon uchun yashirin ma’no oldindan anglashiladi. Hikoyada ellikboshiga e’tibor beraylik: “U og‘ilga kirib teshikni, ho‘kiz bog‘langan ustunni diqqat bilan ko‘zdan kechirdi; negadir ustunni qimirlatib ham ko‘rdi, so‘ngra Qobil boboni chaqirdi va past tovush bilan dedi: -Ho‘kizing hech qayoqqa ketmaydi, topiladi”. Hikoya matnidan ma’lumki, ellikboshi Qobil bobodan yosh jihatdan kichik va qo‘shnisi bo‘ladi. Ammo nega ellikboshi “ho‘kizingiz” emas “ho‘kizing” deb ishlatyapti? Chunki pragmatik nutqda qo‘shni va yoshi kichik odam sifatida emas, mansabdor sifatida tasvirlangan. Adibning mahorati shundaki, ellikboshi nutqi orqali uning kimligi, xarakteri va ruhiyatini tasvirlay olgan. Ellikboshining yana bir nutqiga e’tibor bering: “–yig‘lama, yig‘lama deyman! Ho‘kizing oq poshsho qo‘l ostidan chiqib ketmagan bo‘lsa, topiladi”. Ellikboshining ustunni qimirlatib og‘ilni ko‘zdan kechirishi va og‘ri teshgan yerni yana bir bor ko‘zdan kechirishi va ikki bor “topiladi” ni ishlatishi Qobil boboga katta umid berdi. Bu “katta taftish” uchun Qobil bobo hamyonini qoqishtirib, borini berdi, yana qancha duo qildi. “Bu “Xudo yarlaqagur” shunchalik qilgandan keyin bir nima berish lozimda. Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi”.

Tilshunos olim B. Yo‘ldoshevning ibora xususidagi qarashlaridan bilamizki, bu birliklar kishining fizik, axloqiy, ruhiy, psixik, milliy, intellektual xususiyati, xatti-harakatini ko‘rsatadi va ifoda etadi. “Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi” iborasi

orqali ellikboshining shaxsiyati ochib beriladi. Yuqoridagi “Xudo yarlaqagur” kinoyasi orqali anglashiladiki, ellikboshi aslida uning aksi, teskarisiga munosib, chunki boshiga qiyinchilik tushgan insonga manfaat ko‘zi bilan qaragan insonni hech qanaqasiga Xudo yarlaqamaydi. Yozuvchi jamiyatdagi mana shunday ellikboshi kabi ta‘magirlarni faqat kinoya, piching yo‘li bilan tasvirlabgina, o‘z pragmatik maqsadiga erishish mumkin. Kinoya pragmatikada eng muhim bosqich bo‘lib, kommunikatoridan mantiq va lingvistik bilim talab qiladi. Bu kinoya faqat kontekst ichidagina o‘z mohiyatiga ega bo‘lib, nutq ishtirokchilari uchungina tushunarli bo‘ladi. Ellikboshining yana bir nutqiga e‘tibor qaratamiz: “Gumoningizni ayting bo‘lmasa” - dedi ellikboshi tajang bo‘lib, kim olganini men bilmasam, avliyo bo‘lmasam!” Yozuvchi ellikboshiga birdan tarbiya kiritib qo‘ydimi? Yoki ellikboshi endi qo‘shnisiga achinganidan sizlab gapiryaptimi? Ellikboshining oxirgi nutqidan bu oydinlashadi: “– Ey, yosh bolamisiz! Nega yig‘laysiz? Kap - katta odam...Bitta ho‘kiz bo‘lsa bir gap bo‘lar, xudo ajalga to‘zim bersin! Men qaynag‘amga aytayin, sizga bitta ho‘kiz bersin. Bitta ho‘kiz odamning xunimi?” Ellikboshi sizlab gapirishi uning pragmatik maqsadining perlokutiv ko‘rinishidir. Chunki ellikboshining illokutivi Qobil boboni ishontirish sanaladi. Ellikboshi nutqiga xos pragmemalar esa uning xulq- atvorini ko‘rsatib, ichki ruhiyatini ham ifoda etgan. Ellikboshining paxtafurush qaynatasi ikkita ho‘kiz berishi va “kichkina” sharti borligi esa Qobil boboday sodda, yuvosh va pokdil insonda zarracha shubha uyg‘otmaydi. “Kichkina” ning kinoya tarzida berilishidan ayonki, u Qobil bobo uchun oldindan kutilayotgan nihoyatda katta qiyinchiliklarni anglatadi. Hikoyada “Quruq qoshiq og‘iz yirtadi”, “Belim deguncha beli sinadi”, “O‘ynashmagil arbob bilan- seni urar har bob bilan” va “Berganga bitta ham ko‘p, olganga o‘nta ham oz” kabi paremiologik birliklar pragmatik vaziyatlar uchun xoslangan bo‘lib, voqeaga modal munosabat bildirish maqsadida ifodalangan.

Kommunikativ niyatni ifodalash strategiyasi lingvistik pragmatikaning bosh masalasi hisoblanadi. So‘zlovchi bunda o‘z ichki maqsadini tinglovchiga bayon qilish uchun u yoki bu ifoda usulini tanlaydi. Tanlash jarayoni bevosita tilshunoslikning

stilistika yoʻnalishi obyektidir.¹ Mana bu pragmatik muloqotga eʼtibor qilaylik: “Qobil bobo roʻpara boʻlganda amin ogʻzini ochmasdan qattiq kekirdi, keyin baqbaqasini osiltirib kuldi.

-Ha, sigir yoʻqoldimi?

- yoʻq...sigir emas, hoʻkiz, ola hoʻkiz edi.

- Hoʻkizmi?... Hoʻkiz ekan-da! Himm...Ola hoʻkiz? Tavba!

-Bor- yoʻgʻim shu bitta hoʻkiz edi...”

Pragmatik tahlilda ishtirok etayotgan bitta soʻz ham vaziyatga xoslangan boʻladi. Ushbu dialogda sigir soʻziga nisbatan ola hoʻkiz birikmasi illokutsiya uchun xizmat qilib, pragmatik maqsadga kirishish bosqichi vazifasini bajargan. Shuningdek, lokutsiya jarayonida ishtirokchining “ichki illokutsiyasi” ham seziladi: “Bor yogʻim shu bitta hoʻkiz edi”. Matnning davomida esa Aminning pragmatik maqsadi oydinlashadi:

-Yoʻqolmasdan ilgari bormidi? Qanaqa hoʻkiz edi?

- Ola hoʻkiz...

- Yaxshi hoʻkizmidi yo yomon hoʻkizmidi?

- Qoʻsh mahali...

- Yaxshi hoʻkiz birov yetaklasa keta beradimi?

Aminning soʻroqlaridan anglashiladiki, u bu masalaga jiddiy qaragani yoʻq, shuningdek suhbatdoshiga bepisandligi va unga hazilomiz qilayotgan muomalasi ham aslida “istagini tushuntirib qoʻyish” ga qaratilgan. Muloqotda Aminning niyatni ifodalash strategiyasi hazilomiz usuldaligi bilan boshqalarnikidan keskin farq qiladi. Qobil bobo uning niyatini anglamaydigan darajadagi “bolakay” emasligini ushbu nutqi orqali isbotlaydi: -Bisotimda hech narsa yoʻq... Qobil bobo Aminga hoʻkizdan boshqa narsasi yoʻq ekanligiga emas, u aytayotgan muammoga jiddiy qarash maqsadida ushbu gapni ishlatgan. Ammo Aminning beparvoligi davom etadi, aslida bu beparvolik ham emas, bu taʼmagirlikning ayyorona usuli edi: -Oʻzi qaytib kelmasmikin?... Birov olib ketsa qaytib kela ber, deb qoʻyilmagan ekan-da!

¹ Хакимов М. Узбек прагмалингвистикаси асослари. –Тошкент, 2013. - Б.22

Aminning Qobil boboning ochiq pragmatik maqsadiga “yashirin, ayyorona” o‘z pragmatik niyatini qarshi ishlatgani uning hazil aralash gaplaridan seziladi. Qobil bobo uni anglamayotganidan yoki uning masxaralaganday qilgan hazillaridan emas, o‘z perlokutsiyasi, ya’ni nutqiy ta’sir etishining kuchsizligidan yig‘lab yuboradi. Muloqot so‘ngida Amin o‘z maqsadini ochiq bayon qiladi: -Suyunchidan chashna olib kelinmadimi? Bu gap orqali Amin Qobil boboga ho‘kizni topishimiz uchun xizmat haqi qani demoqchiligini pragmatik usulda qo‘llaydi. Bizga ma’lumki, pragmatik maqsadning muloqot ishtirokchisiga tushunarli bo‘lishi uchun uning xarakteri, ijtimoiy mavqeyi, psixikasi ham e’tiborga olinadi. Oddiy xalq ongidagi amaldorlar hech bir ishni beminnat qilmasligi borasidagi fikrlardan xabardor bo‘lgan amin Qobil bobo kutgan gapni, shuningdek o‘z maqsadini ochiq aytadi, shuning uchun unga bu gap “Ma, ho‘kizing deganday bo‘lib ketdi”. Axir, chol aminning oldiga kelayotganda, “bu chiqim oxirgi va ho‘kizni bo‘ynidan bog‘lab beradigan chiqim, pulning yuziga qarash aqldan emas” degan qarorni qo‘yib bo‘lgan edi. Qobil bobo aminning pristavga xabar berishidan, pristav esa hokimga aytib, uning muammosini hal qilishidan umidvor edi. Ammo amin pristavning o‘zi singari odam ekanligini yana bir muloqotida ochiq aytdi: “-ha, ho‘kizni uylariga eltib berilsinmi? Axir, borilsin, arz qilinsin-da! Fuqoroning arzga borishi arbobning izzati bo‘ladi!” Bu gapi orqali amin “pristavga ham ataganingni olib bor” deyish o‘rniga “axir borilsin, arz qilinsin-da” deb pragmatik tarzda tushuntiradi. Aminning oxirgi gapi fikrimizni tasdiqlaydi.

Hikoyadan anglashiladiki, O‘g‘ri aslida yashirincha ho‘kizni o‘g‘irlagan odam emas, ochiqcha Qobil bobodan foyda undirayotgan ta’magirlardir! Yozuvchi jamiyatdagi shunchaki o‘g‘rilik haqida emas, kambag‘al xalq ustidan qilinayotgan ta’magirlik xususida hikoya qiladi. Hikoyada ho‘kizni o‘g‘irlagan o‘g‘riga emas, ellikboshi, amin, pristav singari “o‘g‘ri” larga diqqat qaratiladi. Ularning har bir xatti-harakati, xulq- atvori va nutqi orqali niyatlari oydinlashadi. Pragmalingvistika mana shunday maqsad va niyatlarni muloqot ishtirokchilari nutqi orqali fosh etib, stilistik, psixik, kognitiv xususiyatlarni o‘z ichiga oladi.

Xulosa

Tilshunos olim Bodeun de Kurtene tadqiqotlarida tilda individuallik va umumiylikning ajralmas hodisa ekanligi, inson tilining mohiyati psixik ekanligi va nutq faoliyatidagi aniq qiymat odam bilan bog‘liq til ekanligi ko‘zga tashlanadi. Til va tafakkur qonuniyatlarini o‘rgangan tilshunos V fon Gumboldtning tilning paydo bo‘lishining birinchi sababi insonning ichki ehtiyoji va shaxslar bilan muloqotga kirishishi borasidagi fikrlari ham bugun tilshunoslikda o‘z isbotini topmoqda. Insonlar til vositasida fikrini turli usullarda ifoda etar ekan, turli usullarda ta’sir etish funksiyasini ishlab chiqar ekan, shu tilga xos semantik- stilistik bilimga ega bo‘lishlari muhim sanaladi. Bunday bilimni o‘rganish va vaziyatga mos qo‘llash uchun esa kognitiv- psixik mexanizm shakllangan bo‘lishi lozim. Har qanday bilim va ko‘nikma amaliy hayotda o‘z natijasini ko‘rsatadi, bu esa biz tadqiq etayotgan sohani anglatadi. Pragmalingvistika tilshunoslikning amaliyot bosqichidir. Kognitiv- psixik mexanizm sanalgan tilning vaziyat va maqsad omilini inobatga olgan holda yuzaga chiqishi esa pragmatik jarayondir. Albatta, muloqotda pragmalingvistikagacha bo‘lgan ko‘prik semantik- stilistik bosqich bo‘lib, bu bilimlarga ega ishtirokchigina emas, bu ilmlarni o‘z maqsadi yo‘lida to‘g‘ri yo‘naltira olgan, to‘g‘ri ifoda eta olgan, ya’ni ijro mahoratiga ega ishtirokchigina pragmalingvistika bosqichiga o‘tgan hisoblanadi. Zero tilni bilish bu shu tilda gapirish, shu tilga xos so‘z ma’nolarini tushunish degani emas! Tilni bilish bu lisoniy qobiliyatni yuzaga chiqarish, ijro - mahoratga ega bo‘lish, ya’ni lisoniy strategik mahoratga ega bo‘lish demakdir. Pragmalingvistika ana shunday individual strategik mahorat masalalari bilan shug‘ullanib, kognitiv- psixik, semantik- stilistik tamoyillarga amal qiladi. Badiiy asarni pragmalingvistik tahlil qilish jarayonida ham yozuvchining, ham asar qahramonlarining pragmatik xususiyatlari ochib berilib, inson tili va ruhiyatining zamon, davr va vaziyat omili bilan bog‘lik jihatlari e’tiborga olinadi. 1936-yilda yozilgan Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasida ham umuminsoniy illatlar bilan bir qatorda jamiyatdagi nuqsonlar zamon, davr doirasidan chetga chiqmagan holda fosh etilgan. Bugungi kun bilan bog‘liq pragmatik tahlillar

ham aynan shu kabi muammolar yuzasidan amalga oshiriladi. Pragmatika inson nutqining har qanday davrdagi funksional xoslanishiga e'tibor qaratib, verbal va noverbal munosabatlarni tadqiq etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. –Тошкент.,2008.
2. Сафаров Ш. Таржимашуносликнинг когнитив асослари. –Тошкент.,2019.
3. Хакимов М. Узбек прагмалингвистикаси асослари. –Тошкент, 2013.
4. Йулдошев М. Бадиий матн лингвопоетикаси. Тошкент.,2008.
5. Йулдошев Б. Узбек фразеологияси ва фразеографиясининг шаклланиши ҳамда таракқиети. Монография. - Самарканд: СамДУ нашри,2007.
6. Муминов С. Узбек мулокот хулқининг ижтимоий- лисоний хусусиятлари. Диссертация. –Тошкент., 2000
7. Usmonova Sh. Psixolingvistika. O'quv qo'llanma. –Toshkent: Universitet, 2015.
8. Abdulla Qahhor. Dahshat. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2019. 19-23 betlar.
9. Петров В.В. Философия, семантика, прагматика. // Новое в зарубежной лингвистике. Вып.ХVI. – М., 1985.